

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHILARI UCHUN

QO'LLANMA

Sinf: 4-sinf

Dars mavzusi: "Fuqarolik sifatlari"

Dars davomiyligi: 45 daqiqa

Dars maqsadi:

- O'quvchilarga fuqarolik sifatlarini rivojlantirish, huquq va majburiyatlarni to'g'ri tushunish, shaxsiy va jamiyatga oid mas'uliyatni his qilishni o'rgatish.
- O'quvchilarda navbatda turish madaniyati, xavfli vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish va qobiliyatlarni rivojlantirishga oid asosiy ko'nikmalarni shakllantirish.
- Ijobiy sifatlarini o'rganish va o'z shaxsiy rivojlanish yo'llarini belgilashni shakllantirish.

Kutilayotgan natijalar:

- O'quvchilar fuqarolik sifatlari va ularning ahamiyatini tushunadilar.
- Xavfli vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish va navbatda turish madaniyatiga oid bilimlarni aniqlaydilar.
- O'quvchilar huquq va majburiyatlarni tushunadilar va jamiyatda faol fuqarolar bo'lishga tayyor bo'ladilar.
- Qobiliyatlarini rivojlantirish va o'rganishni o'rganish mavzusida shaxsiy maqsadlarni belgilaydilar.

Metodlar:

- Rolli o'yinlar (Xavfli vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, navbatda turish madaniyati)
- Blits so'rov (Fuqarolik sifatlari va huquq, majburiyatlar haqida savollar)
- Suhbat (Shaxsiy rivojlanish, qobiliyatlarni rivojlantirish mavzusida muhokama)
- Hikoya (Xavfli vaziyatlar va to'g'ri qarorlar haqida hikoya)

Foydalaniladigan materiallar:

- Tasvirlar: "Fuqarolik sifatlari", "Navbatda turish madaniyati", "Xavfli vaziyatlarda qanday harakat qilish"
- Kartochkalar: Xavfli vaziyatlar, fuqarolik sifatlariga oid misollar

- Rasm: Fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning turli shakllari, navbatda turish madaniyati
-

Dars qismlari:

1. Darsga kirish (5 daqiqa)

- O'qituvchi: "Bugun biz fuqarolik sifatleri haqida gaplashamiz. Bu sifatlar qanday bo'lishi kerak? Kelajakda qanday shaxs bo'lishni istaymiz?"
 - Suhbat: "Bizning huquqlarimiz va majburiyatlarimiz qanday? Jamiyatda yoki jamoada qanday fuqarolik sifatlarini rivojlantirishimiz kerak?"
-

2. Mavzuni tushuntirish (10 daqiqa)

Qobiliyatlarni rivojlantirish:

- Ta'rif: "Qobiliyatlarimizni rivojlantirish — bu o'zimizga kerakli sohalarda kamchiliklarimiz ustida ishlash va imkoniyatlardan foydalanish. Bu shaxsiy rivojlanishga olib keladi."
- Misol: "Agar o'qishga qiziqishingiz bo'lsa, har kuni izlanishlarni amalga oshirish, yangiliklarni o'rganish kabi odatlar orqali qobiliyatlaringizni rivojlantirishingiz mumkin."

Navbatda turish madaniyati:

- Ta'rif: "Navbatda turish madaniyati — bu jamoat joylarida boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, o'z navbatiga ketma-ketligiga va jamoat joylari tartibiga amal qilishdir."
- Misol: "Maktabda yoki avtobusda navbatda turib, boshqalarga halaqit bermaslik, shu bilan birga hurmatni namoyon qilish."

Xavfli vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish:

- Ta'rif: "Xavfli vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish — bu xavfsizlik qoidalarini tushunish va shoshilmay, mantiqiy harakat qilishdir. Bu juda muhim, chunki xavfli vaziyatlarda qarorlarni to'g'ri qabul qilish hayotimizga to'g'ri ta'sir ko'rsatadi hamda xavf natijasida zararlanishni oldini oladi."
- Misol: "Agar xonada gaz hidini sezsangiz, birinchi qadam — xonani shamollatish hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda chiroq va boshqa o't chiqaruvchi jihozlardan foydalanish umuman mumkin emas."

Huquq va majburiyatlar:

- Ta'rif: "Huquq va majburiyatlar — bu fuqarolarning o'zlarini jamiyatda to'g'ri va adolatli namoyon etish uchun qonunlar bilan belgilangan imkoniyat va qoidalaridir."

- Misol: "Har bir insonning ta'lim olish huquqi bor. Shuningdek, darslarda ishtirok etish majburiydir. Shu sababli jamiyatda boshqa qat'iy qoidalar va vazifalarga rioya qilish munosabatlari yuzaga kela boshlaydi."
-

3. Hayotiy vaziyatlar (Keys) (10 daqiqa)

Keys 1:

- Holat: "Maktabga borayotganingizda o'zingizdan kichik yoshdagi bola adashib qolganini aytib sizdan yordam so'raydi. Bu holat xavfli vaziyat hisoblanadimi?"
 - Savollar:
 1. Bu vaziyatda qanday to'g'ri qaror qabul qilish mumkin?
 2. Xavfli vaziyatda yordam berish qanday amalga oshiriladi?

Keys 2:

- Holat: "Avtobusga kirishda bir o'quvchi har doim navbatni buzib, oldinga o'tishga harakat qiladi. Uning xulq-atvorini qanday to'g'rilash mumkin?"
 - Savollar:
 1. Navbatda turish madaniyatiga rioya qilishning ahamiyati nimada?
 2. Qanday qilib boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishimiz kerak?
-

4. Rolli o'yinlar (10 daqiqa)

Rolli o'yin:

- Holat: "Navbatda turish madaniyati va xavfli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish. Biroq, vaziyat shunday bo'ladi: bir o'quvchi avtobusda hech qachon yoshi kattalarga joy bermaydi. U bilan qanday suhbat olib borish mumkin?"
 - Rollar: bir o'quvchi yuqoridagi no'rin harakatlarni amalga oshiradi, ikkinchisi qoidalarini tushuntiradi va fuqarolarga hurmat bilan munosabatda bo'lish kerakligini aytib o'tadi.
-

5. Blitz so'rov (5 daqiqa)

- Savollar:
 1. Navbatda turish madaniyatining ahamiyati nimada?
 2. Xavfli vaziyatda qanday qilib to'g'ri qaror qabul qilish mumkin?
 3. Qanday qobiliyatlarni rivojlantirish orqali fuqarolik sifatlarini yaxshilash mumkin?
-

Yakunlash (5 daqiqa):

- O'qituvchi: "Biz bugun fuqarolik sifatlarini rivojlantirish, xavfli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va navbatda turish madaniyati haqida gaplashdik. Har birimiz shaxsiy rivojlanishni amalga oshirishda huquq va majburiyatlarga amal qilishimiz lozim."